

BOLALARDA MENINGOKOK INFEKSIYASI: PROFILAKTIKASI VA PARVARISHLASH

Yusupaxmedova Rafoatxon Ibrohimovna

*Asaka Abu Ali ibn Sino nomidagi
jamoat salomatligini saqlash texnikumi.
Pediatriya kafedrası o'qituvchisi*

Annotatsiya. Meningokok infeksiyasi bolalarda og'ir kechuvchi, tez rivojlanadigan va hayot uchun xavfli kasalliklardan biridir. Ushbu mavzuda meningokok infeksiyasining klinik belgilari, erta aniqlash, zamonaviy davolash usullari va kasallikning oldini olish choralariga e'tibor qaratiladi. Shuningdek, meningokok infeksiyasiga chalingan bolalarni parvarish qilishning asosiy tamoyillari, immunizatsiya va epidemiologik nazorat usullari bayon etiladi. Kasallikning erta tashxisi va samarali profilaktikasi bolalar o'rtasida o'lim va asoratlar ko'rsatkichini sezilarli darajada kamaytiradi.

Kalit so'zlar: meningokok infeksiyasi, bolalar, profilaktika, parvarishlash, meningit, sepsis, immunizatsiya, bakterial infeksiya, vaktsinatsiya, epidemiologik nazorat.

Meningokok infeksiyasi – *Neisseria meningitidis* bakteriyasi chaqiradigan, asosan bolalarda uchraydigan og'ir va xavfli infeksiyalardan biridir. Infeksiya meningit, sepsis, meningoencefalit kabi jiddiy shakllarda kechishi va qisqa vaqt ichida bemorning hayotiga xavf tug'dirishi mumkin. Shu sababli kasallikni erta aniqlash, profilaktika va to'g'ri parvarishlash choralarini bilish juda muhim hisoblanadi.

Meningokokk infeksiyasi — meningokokklar qo'zg'atadigan o'tkir infeksiyon kasallik. Meningokokk infeksiyasining manbai bemor, asosan, bakteriya tashuvchilar; ulardan mikroorganizmlarga havotomchi yo'li orqali tarqaladi. Qish va bahorda ko'proq uchraydi (mavsumiy ko'tarilish). Meningokokk infeksiyasi burun va halqum shilliq pardasining yallig'lanib zararlanishi (nazofaringit), bosh miya yum-shoq pardasining yiringli yallig'lanishi (yiringli meningit) yoki miya moddasining miya pardasi bilan birgalikda yallig'lanishi (meningoensefalit) yoki meningokokklar qonga tushganda ro'y beradigan meningokokksemiya sifatida o'tishi mumkin. Aksari ayni bir bemorda kasallikning sanab o'tilgan barcha shakllari avj oladi. Ko'pincha kasallik alomatlari bo'lmagani holda meningokokklarni tashuvchanlik kuzatiladi, bu, ayniqsa, xavfli. Tumov, yo'tal, aksirish bilan o'tadigan yallig'lanish belgilari bo'lgan (nazofaringit) bemor, kasallik qo'zg'a-tuvchisining tez tarqalishiga sabab bo'ladi.

Nazofaringitda tomoq og'riydi va achishadi, quruq yo'tal tutadi, burun bitadi,

burundan shilimshiq-yiringli, ba'zan, qon aralash suyuklik keladi. Bosh aylanishi, og'rishi, harorat ko'tarilishi, burun qonashi mumkin.

Meningokokksemiya isitma bilan boshlanadi, badanga kattakatta toshmalar toshadi. Ba'zan nuqtasimon yoki yaxlit qon quyilishi mumkin. Bu juda og'ir kechadi, yurak faoliyati buziladi, ichki a'zolariga qon quyiladi. Vaqtida davo qilinmasa o'lim ro'y beradi.

Meningit ham, odatda, to'satdan boshlanadi. Meningokokk infeksiyasiga shubha qilinganda tomoq va burundan surtma hamda orqa miya suyukligi olib tekshiriladi. Meningokokk tashuvchilik va meningokokk nazofaringiti kasallikning maxalliy turiga kiradi. Meningokokksemiya va meningokokk meningita tarqoq turlar hisoblanadi.

Meningokokk infeksiyasining klinik belgilari

Meningokokk infeksiyasi odatda quyidagi belgilar bilan boshlanadi:

- Tana haroratining keskin ko'tarilishi
- Bosh og'rig'i
- Qusish
- Teri va shilliq pardalarda toshmalar
- Ongning buzilishi, tutqanoq
- Bo'yin qattiqligi

Yosh bolalarda simptomlar ko'pincha nonspezifik ko'rinishda (bezovtalik, ishtaha yo'qligi, uyquchanlik) namoyon bo'ladi.

Meningokokk infeksiyasining oldini olishda asosiy choralar quyidagilardan iborat:

Vaksinatsiya: Meningokokka qarshi polivalent vaktsinalar (A, C, W, Y va B guruhlariga qarshi) bolalarda kasallik rivojlanish xavfini sezilarli kamaytiradi.

Profilaktik antibiotikoterapiya: Kasallik bilan aloqa qilgan shaxslarga (ayniqsa oilaviy a'zolar va bolalar muassasalari a'zolari) profilaktik antibiotiklar buyuriladi.

Gigiyena qoidalariga rioya qilish: Shaxsiy va jamoat joylarida tozalikni saqlash, niqob taqish va immunitetni mustahkamlash.

Meningokokk infeksiyasiga chalingan bolalar maxsus parvarishga muhtoj:

Yotoq rejimi: Og'ir bemorlar statsionar sharoitda qat'iy yotoq rejimiga olingan bo'lishi kerak.

Suyuqlik va oziqlanish: Dehidratatsiyaning oldini olish uchun yetarlicha suyuqlik beriladi, parenteral oziqlanish zarurati baholanadi.

Nazorat: Hayotiy ko'rsatkichlar (arterial bosim, yurak urishi, nafas olish) doimiy nazorat qilinadi.

Simptomatik davolash: Tutqanoqlar, isitma va nafas yetishmovchiligi kabi asoratlarni bartaraf etish.

Reabilitatsiya: Kasallikdan keyin asoratlarni kamaytirish uchun fizioterapiya va

psixologik yordam zarur.¹

Xulosa qilib aytganda, Meningokok infeksiyasi o'z vaqtida aniqlanib, to'g'ri davolansa, bolalarda o'lim va asoratlari oldini olish mumkin. Profilaktik choratadbirlarni kuchaytirish, vaksinalarni keng joriy etish va bemorlarni o'z vaqtida parvarishlash bu kasallikdan himoya qilishda muhim o'rin tutadi. Tibbiy xodimlarning hushyorligi va ota-onalarning xabardorligi meningokok infeksiyasiga qarshi kurashda asosiy omillardir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. World Health Organization (WHO). "Meningococcal Meningitis: Factsheet." 2022.
2. Borrow R., et al. "The Global Need for a Meningococcal Vaccine." *Clinical Infectious Diseases*, 2017; 64(1): 87–92.
3. Harrison L.H. "Epidemiological profile of meningococcal disease in the United States." *Clinical Infectious Diseases*, 2010.
4. Azizov B.K., Matkarimova N.N. "Bolalarda infeksiyon kasalliklar." Toshkent, 2020.
5. Centers for Disease Control and Prevention (CDC). "Meningococcal Disease: Prevention and Control." 2023.
6. Qodirov A.A., Shamsiyeva D.M. "Infeksiyon kasalliklar va epidemiologiya asoslari." Toshkent, 2021.

¹ Azizov B.K., Matkarimova N.N. "Bolalarda infeksiyon kasalliklar." Toshkent, 2020.